


**SHOAKBAR SHORUSTAMOVICH SHORAXMETOV — HUQUQ ILMIGA UMRINI  
BAG‘ISHLAGAN FIDOYI USTOZ**

**Mirvohidova Fazilat Mirfayzulla qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi.

[mirvohidovafazilat@gmail.com](mailto:mirvohidovafazilat@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20496419>



Har bir xalqning ma’naviy va ilmiy taraqqiyoti uning fidoyi farzandlari, ilm ahli va ustozlari bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyotida ilm-fan vakillarining, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashga umrini bag‘ishlagan ustozlarning o‘rni beqiyosdir. Zero, haqiqiy ustoz nafaqat bilim beradi, balki inson qalbiga ezgulik, adolat, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularini ham singdiradi.

Aynan shunday insonlar tufayli ilm rivojlanadi, jamiyat yuksaladi va kelajak avlod ma’naviy yetuk bo‘lib voyaga yetadi.

O‘zbekiston huquqshunoslik maktabi tarixida ham xalqimizning huquqiy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, yuridik ta’lim va ilm-fan taraqqiyotiga munosib xizmat qilgan buyuk ustozlar nomi alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Ana shunday atoqli huquqshunos olimlardan biri — O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetovdir.

Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetov nafaqat yirik olim, balki minglab talabalar qalbida o‘chmas iz qoldirgan mahoratli pedagog, adolat va ilm yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan inson sifatida ham xalqimiz ehtiromiga sazovor bo‘lgan. U o‘zining ko‘p yillik faoliyati davomida yuridik ilm-fan rivojiga, qonunchilikni takomillashtirishga hamda yosh huquqshunos kadrlarni tarbiyalashga ulkan hissa qo‘shdi.

Professorning hayot yo‘li ilmga muhabbat, kasbga sadoqat va tinimsiz izlanishlar bilan uyg‘unlashgan.

Uning butun faoliyati davomida adolat, qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish kabi tamoyillar asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan. Shu boisdan ham ustozning nomi nafaqat ilmiy doiralarda, balki keng jamoatchilik orasida ham katta hurmat bilan tilga olinadi.

Bugungi kunda Shoakbar Shorustamovichning boy ilmiy merosi, yaratgan darslik va qo'llanmalari, tarbiyalagan shogirdlari hamda huquq sohasidagi xizmatlari yuridik ta'lim tizimining muhim qismiga aylangan. Ustozning hayoti va faoliyati yoshlar uchun chinakam ibrat maktabidir. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida yuksak bilimli, vatanparvar va adolatparvar mutaxassislarni tayyorlash masalasi dolzarb bo'lib turgan bir paytda professor Shoraxmetov kabi ustozlarning faoliyati yanada katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetovning hayot yo'li, ilmiy faoliyati, pedagogik mahorati, shaxsiy fazilatlar hamda huquqshunoslik ilmi ravnaqiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

Shoraxmetov Shoakbar Shorustamovich 1931-yil 26-avgust kuni hozirgi Qozog'iston Respublikasining Sirdaryo daryosidan uncha uzoq bo'lmagan so'lim, bahova shahri Chimkentda xizmatchi oilasida tavallud topgan. Otalari – Shorustam ota oddiy xizmatchi bo'lganlar. 1943-yil ayni ikkinchi jahon urushining qizg'in pallasida nemis fashistlari bilan bo'lgan janglarda og'ir kasallikdan vafot etganlar. Onalari – Tojixon aya yolg'iz ayol bo'lishlariga qarmasdan to'rt o'g'illarini o'zlari katta qildilar, ularga ta'lim-tarbiya berdilar. Ushbu to'rt farzandning eng kenjasi Ustoz Shoakbar Shorustamovich edilar. Ustozning bolalik vaqtlari ayni ikkinchi jahon urushining sovuq shamollari kezib yurgan, ocharchilik, mamlakat iqtisodiyotini to'laligicha urushga moslashtirish kabi og'ir davrga to'g'ri keldi. Ehtimol, aynan shu faktorlar Ustozning mustahkam iroda sohibi bo'lib yetishishlarida muhim rol o'ynagandir.

Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetov yuridik fan rivoji uchun xizmat qilgan atoqli olimlardan biridir. U o'z faoliyati davomida huquqshunoslikning dolzarb masalalarini chuqur o'rganib, ilmiy izlanishlar olib bordi. Professor Shoraxmetov ilm yo'lini tanlar ekan, bu yo'lning naqadar mas'uliyatli va mashaqqatli ekanini yaxshi anglagan edi. Biroq ustozning ilmga bo'lgan muhabbati, qat'iyati va izlanishdan to'xtamaydigan tabiati uni yuksak marralarga olib chiqdi. U o'zining chuqur bilimlari, ilmiy salohiyati va yuksak tafakkuri bilan yuridik ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shdi. Shoakbar Shorustamovich tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, darslik va qo'llanmalar ko'plab talabalar, tadqiqotchilar va amaliyotchi huquqshunoslar uchun muhim manba vazifasini bajardi. Ustozning ilmiy qarashlari huquqiy tafakkur rivojiga, yoshlarning qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga xizmat qildi.

Professorning ilmiy faoliyatida inson huquqlari, qonun ustuvorligi va adolat masalalari alohida o'rin egalladi. U huquqni shunchaki qonunlar yig'indisi emas, balki inson manfaatlariga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qilardi. Shu sababli ham uning ma'ruzalari, maqolalari va ilmiy ishlari talabalarda katta qiziqish uyg'otgan.

Ustozning ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Uning ilmiy qarashlari va metodik tavsiyalari yuridik ta'lim tizimida keng foydalanilmoqda.

Shoakbar Shorustamovichning eng katta fazilatlaridan biri — uning ustoz sifatidagi fidoyiligidir. U ko'plab talabalar qalbida o'zining samimiyligi, talabchanligi va chuqur bilimlari bilan unutilmas iz qoldirgan.

Professor dars jarayonlarida nafaqat nazariy bilim berishga, balki talabalarda mustaqil fikrlash, adolat va mas'uliyat hissini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratgan. Uning auditoriyaga kirib kelishi talabalar uchun oddiy dars emas, balki katta hayot maktabining boshlanishi edi. Ustoz har bir mavzuni hayotiy misollar bilan boyitar, murakkab huquqiy masalalarni sodda va tushunarli tarzda izohlab berardi. Shu boisdan ham professorning darslari talabalar tomonidan katta qiziqish bilan tinglangan.

Shorustamovich yoshlarni nafaqat bilimli mutaxassis, balki vatanparvar, halol va adolatli inson bo'lib voyaga yetishiga ham katta e'tibor qaratgan. U talabalariga doimo ilm olishdan to'xtamaslik, o'z ustida ishlash va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his qilish kerakligini ta'kidlab kelgan. Professorning ma'ruzalari har doim hayotiy misollar, huquqiy tahlillar va ilmiy asoslangan fikrlar bilan boy bo'lgan. Shu sababli uning shogirdlari orasidan yetuk huquqshunoslar, olimlar va davlat arboblari yetishib chiqqan.

Professor Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetovning ilmiy va pedagogik faoliyati mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. U huquqiy islohotlarni qo'llab-quvvatlab, qonunchilik tizimini takomillashtirishga oid qator ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Ustozning fikricha, jamiyat taraqqiyoti avvalo qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga bog'liqdir. Shu sababli u har doim huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Shoakbar Shorustamovich tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oyalar va tavsiyalar yuridik ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. U ilm-fan bilan amaliyot uyg'unligini ta'minlash tarafdori bo'lib, yosh huquqshunoslarni nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham qurollantirish zarurligini ta'kidlagan.

Ustoz Shoakbar Shorustamovichning sud tizimi, ilmiy-pedagogik faoliyati hamda davlat organlaridagi xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib e'tirof etilib, 1983- yil mart oyida Oliy Sovet Prezidiumining Farmoniga asosan "**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist**" faxriy unvoni bilan taqdirlandilar. E'tiborli jihati, hozirgi kunga kelib ham mazkur faxriy unvonga juda oz yuristlar erishgan bo'lib, Ustoz Shoakbar Shorustamovich ulardan dastlabki sohiblaridan edilar.

Keyinchalik Ustoz Toshkent davlat yuridik institutining "Fuqarolik kafedarsi" mudiri sifatida faoliyat yurita boshlandilar. Bu mas'uliyatli lavozim hayot tajribasi bilan bir vaqtda yuqori ilm salohiyat ham talab qilishini bilan Shoakbar Shorustamovich 1989-yil ilmiy kengash a'zolarining qarori bilan professorlik ilmiy unvoni berildi. Bu qaror keyinchalik Moskva Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan ham tasdiqlandi. Ustoz 1995-yil 12- iyulda doktorlik dissertatsiyasining himoyasini o'tkazdilar hamda yuridik fanlar doktori faxriy ilm unvonga ega bo'ldilar. O'zbekiston mustaqilligining 10 yilligi munosabati bilan mamalakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning tegishli Farmoni bilan Ustoz Shoakbar Shorustamovich "**Menat shuhrati**" ordeni bilan taqdirlandilar.

Ustoz Shoakbar Shorustamovich tomonidan turli yillarda **73 ta ilmiy maqolalar, 28 ta darsik, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar** nashr etilgan. Ustoz tomonidan 2001-yilda biryo'la ikkita darslik: O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi va Xo'jalik protsessual huquqi darsliklari nashr etildi.

O'sha kezlari TDYI ning Ilmiy kengashi yig'ilishlarini birida institut Rektori yuridik fanlar doktori, professor M.H.Rustamboev "bir yilda ikkita darslikni yozish va chop etish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi", - deb e'tirof etgan edilar. Ustoz **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarlik kodeksiga sharh** loyihalarini tayyorlashdan shaxsan boshchilik qilganlar.

Professor Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetov tomonidan yaratilgan darsliklar, ilmiy maqolalar va qo'llanmalar yuridik ta'lim rivojida alohida o'rin tutadi. Uning asarlari huquqshunoslikning muhim yo'nalishlarini qamrab olgan bo'lib, ko'plab talabalar va tadqiqotchilar uchun asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Ustozning kitoblari nafaqat ilmiy mazmuni, balki sodda va ravon uslubi bilan ham ajralib turadi. Professor murakkab huquqiy tushunchalarni oddiy va tushunarli tilda bayon qila olgan. Shu sababli uning asarlari yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan mutolaa qilingan.

Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetovning ilmiy merosi orasida alohida e'tiborga loyiq asarlardan biri — "Fuqarolik ishlarini sudda ko'rish jarayonidagi hujjat (Vasiqa)lar namunalarini" nomli kitobidir.

Ushbu kitob haqida ustozning qizlari, yuridik fanlar doktori Sharaxmetova Umida Shoakbarovna "Ustozni xotirlab" mavzusida tashkil etilgan davra suhbatida alohida to'xtalib o'tgan.

Ustozning ta'kidlanishlaricha, bu asar o'z davri uchun mutlaqo noyob va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblardan biri hisoblangan. Kitobda fuqarolik ishlarini sudda ko'rish jarayoniga oid namunaviy hujjatlar yagona to'plam shaklida jamlangan bo'lib, u amaliyotga kirib kelayotgan yosh sudyalalar va huquqshunoslar uchun dasturiy qo'llanma vazifasini bajargan.

Asarning yana bir e'tiborli jihati shundaki, kitobning ayrim joylarida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun maxsus varaqchalar qoldirilgan. Bu esa ustozning ilmga bo'lgan munosabati, doimiy izlanish va takomillashtirish tarafdori bo'lganini ko'rsatadi.

Ya'ni professor ilm hech qachon bir joyda to'xtab qolmasligi, har bir asar zamon bilan hamnafas ravishda boyib borishi kerak degan g'oyani ilgari surgan. Umida Shoakbarovna o'z xotiralarida ustozning doimo izlanishda bo'lganini, o'z ustilarida tinimsiz ishlaganini va ilm-fanga fidoyilik bilan yondashganini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Shoakbar Shorustamovich tomonidan yaratilgan yana bir muhim asarlardan biri — "O'zbekiston SSRning grajdanlik protsessual huquqi" nomli o'zbek tilidagi ilk darslik hisoblanadi.

Ushbu asar nafaqat ilmiy qiymati, balki undagi samimiy insoniy tuyg'ular bilan ham ahamiyatlidir.

Ustoz ushbu kitobning ichki muqovasida umr yo'ldoshi Ra'noxonga bo'lgan chuqur hurmati va mehrini quyidagi satrlar orqali ifoda etgan:

*"Umr yo'ldoshim, sirdoshim, maslakdoshim, maslahatgo'yim, sadoqatli rafiqam Ra'noxonga, zahmatli mehnatlari evaziga..."*

Bu satrlar Shoakbar Shorustamovichning nafaqat buyuk olim va ustoz, balki oilaparvar, sadoqatli inson bo'lganini ham namoyon etadi.


Ilm yo‘lidagi yutuqlarda insonning eng yaqin insonlari — oilasi va umr yo‘ldoshining o‘rni naqadar muhim ekanini ustoz o‘z hayoti va ijodi orqali ko‘rsatib bergan.

Mazkur fikrlar ham “Ustozni xotirlab” tashkil etilgan davra suhbatida ustozning qizlari Sharaxmetova Umida Shoakbarovna tomonidan iliq xotiralar bilan eslab o‘tilgan.

Yana, ular quyidagi go‘zal xotiralarni yodga oldilar. *“Otam ishlab o‘tiradilarmi, hovlida yuradilarmi, ertalab birinchi navbatda issiq damlangan choy piyolada borardi. “Zaxmatli mehnatlari evaziga” deb yozilgani ham bejizga emas.*

*Har bir ayolning oilada mehnatlari, zaxmatlari bor. Lekin uni e‘tirof etish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi...”*

Professorning ilmiy merosi bugungi kunda ham yuridik ta‘lim va ilm-fan rivojiga xizmat qilmoqda.



Toshkent davlat yuridik universitetida ustoz va murabbiy, yuridik fanlar doktori, professor SHOAKBAR SHORAXMETOV xotirasi va ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan “Taniqli olim Shoakbar Shoraxmetovning ilmiy-pedagogik faoliyatiga bag‘ishlangan tadbir” mavzusidagi davra suhbatini bo‘lib o‘tdi.



Haqiqiy ustozning boyligi — uning shogirdlaridir. Shoakbar Shorustamovich ham o‘zining ko‘plab shogirdlari qalbida chuqur iz qoldirgan insonlardan biri hisoblanadi. Ustozning samimiyligi, talabchanligi va insoniy fazilatlarini ko‘pchilik tomonidan iliq xotiralar bilan eslanadi.

Shogirdlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor **Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich** ustozimiz Sh. Shorustamovich haqlarida gapirar ekanlar, ular o‘z shogirdlariga otalarcha mehribonliklarini, otalarcha munosabatda bo‘lganlarini alohida e‘tirof etdilar. Bu haqda M. Musajonovich o‘z kitoblarida ham yozib o‘tganlar. “Shorustamovich shogirdlariga doim yumshoq muomalada bo‘lgan inson bo‘lganlar. Qo‘pol so‘zlar hech qachon ustozning og‘izlaridan chiqmagan. Xatolarimizni muloyimlik bilan to‘g‘irlardilar. “Hech kim xatosiz yuksalmagan.

Hamma narsani bilib tug‘ilmagan. Siz ham sekin-sekin o‘rganasiz, xatolarni kamaytirasiz mavlono “derdilar. Mana, ustozning ishonchlarini oqladik. Ularga munosib shogird bo‘lishga harakat qilmoqdamiz. Ustozimizning ruhlarini doimo shod qilamiz” deb nutqlarini tamomladilar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich.

Shorustamovich ustozimizning yana bir shogirdlari **Samarxodjayev Batir Bilyalovich** — O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi kafedra mudiri, yuridik fanlari doktori, professor. Ustozning naqadar kamtar, samimiy inson ekanliklarini xotiradilar. “Shoakbar aka sekin metroga tushib ishga kelardilar. Universitet tomon kelar ekanlar, kattami kichikmi hammaga bilan salomlashardilar. Kashtanlar bo‘lardi, shulardan har kuni olib kelib, kafedradagilarga ya‘ni biz shogirdlariga berardilar. Biz kashtanlarni ustozimizning mehrlari deb qabul qilardik...”

“Cyber university” davlat universiteti kafedra mudiri, y.f.f.d, dotsent **Maripova Sevarxon Aribjanovna** doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish arafasida turmush qurganlar. Oila va kelinlik mas‘uliyatlari bilan himoya qolib ketayotgan paytda Shoakbar Shorustamovich himoyani amalga oshirishlari uchun o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar. Ustozga bo‘lgan hurmatlari, ularga havas qilganlari uchun Aribjanovna farzandlariga Shoakbar deb ism qoydilar.

TDYU prorektori, yuridik fanlar doktori, professor ustozimiz **Esanova Zamira Normurotovna** ustozni xotirlar ekanlar ko‘zlariga yosh oldilar.

“Ustozning hayot yo’llari barchamiz uchun eng katta hayot darsi. Bizni shu kungacha yetib kelishimizga, shu darajaga erishishimizga ustozni ruhlari hamon bizni qo’llab-quvvatlab turibdi.

Har bir muvaffaqiyatimizda ustozning qo’llari bor” dedilar ustozni xotirlab tashkil etilgan davra suhbatidagi nutqlari davomida Zamira Normurotovna.

Bugungi kunda Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetov nomi yuridik ilm-fan va ta’lim tizimida alohida hurmat bilan tilga olinadi. Uning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun chinakam ibrat maktabidir. Ilmga sadoqat, kasbga muhabbat, ustozlik mas’uliyati va Vatanga xizmat qilish kabi fazilatlar professor faoliyatining asosiy mezoniga aylangan.

Har bir yosh huquqshunos Shoakbar Shorustamovich kabi ustozlarning hayot yo’lidan o’rnak olib, jamiyat taraqqiyoti va adolat ustuvorligini ta’minlash yo’lida xizmat qilishi lozim.

Zero, haqiqiy ustozning merosi — uning tarbiyalagan shogirdlari va ilmiy merosi bilan yashaydi.

Professorning butun hayoti davomida ko’rsatgan fidoyiligi, ilmga bo’lgan muhabbati va yoshlarga bergan e’tibori bugungi avlod uchun katta motivatsiya manbai bo’lib xizmat qiladi.

Ustozning nomi va ilmiy merosi hali uzoq yillar davomida ehtirom bilan tilga olinadi.

Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetov o’zining serqirra faoliyati, yuksak ilmiy salohiyati va insoniy fazilatlarini bilan O’zbekiston huquqshunoslik maktabida munosib o’rin egallagan buyuk ustozlardan biridir. U nafaqat yirik olim va mohir pedagog, balki inson qalbiga yo’l topa olgan, adolat va ezgulik g’oyalariga sodiq inson sifatida ham ko’pchilikning hurmatiga sazovor bo’lgan.

Professorning hayoti bizga shuni anglatadiki, haqiqiy buyuklik mansab yoki unvon bilan emas, balki insonlarga qilgan yaxshiligi, ilm-fanga qo’shgan hissasi va ortidan qoldirgan ezgu izlari bilan o’lchanadi. Shoakbar Shorustamovich ana shunday iz qoldira olgan insonlardan biridir.

Ustozning boy ilmiy merosi, yaratgan asarlari, tarbiyalagan shogirdlari va insoniy fazilatlarini kelajak avlod uchun bebaho boylikdir. Uning nomi yuridik ilm-fan tarixida doimo hurmat bilan tilga olinadi.

Inson umrining mazmuni uning qancha yashagani bilan emas, balki jamiyat uchun qanday foyda keltirgani bilan belgilanadi. Shoakbar Shorustamovich Shoraxmetov esa o’z umrini ilm-fan, adolat va yoshlar tarbiyasiga bag’ishlab, xalq qalbidan chuqur joy egallagan buyuk ustozlardan biri sifatida yodda qoladi.

Uning hayot yo’li har bir yosh uchun saboq, har bir ustoz uchun ibrat va har bir huquqshunos uchun sharaflilik maktab bo’lib qoladi!